

---

## MAHALLA KO'CHALARI TA'MIRLANIB OBOD VA RAVON BO'LMOQDA

Prezidentimizning joriy yil 25 oktyabrda qabul qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshloq tumanidagi mahallalarda keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Hududlarda ichimlik suvi tarmoqlarini tortilishi, elektr energiyasini yaxshilanishi hamda ichki yo'llarni ta'mirlanishi aholini ko'p yillik orzusini ushalishiga xizmat qilmoqda.

Shu kunlarda tumandagi "Toshloq" mahalla fuqarolar yig'inida yo'l infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida 3 km masofadagi ichki yo'llarda asfalt yotqizish ishlari amalga oshirilmoqda.

Prezident qaroriga ko'ra, ta'mirlash ishlari uchun 1 milliard 500 million so'm mablag' ajratilgan.

2023-04-10 11:12:37